

Mahmudova Darmonjon

METODIKA FANLARINI O'QITISH TEXNOLOGIYASI

(DARSLIK)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MAHMUDOVA D.B.

METODIKA FANLARINI O'QITISH
TEXNOLOGIYASI
darslik

Chirchiq – 2024

UO'K 373.2;37.014.6

KBK 74.1

M-27

Mahmudova D.B. / Metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi / Darslik / Chirchiq: "Osiyo tur", 2024 y., 188 b.

Ushbu darslik **"Metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi"** fani bo'yicha yaratilgan bo'lib, unda mazkur fanning maqsadi talabalarni metodika fanlarini o'qitishning nazariy, ilmiy asoslari, O'zbekistonda ta'lim tarbiyaning ustuvor masalalari, o'qitish texnologiyalari bilan tanishtirish yuzasidan mashg'ulotlarining ta'lim texnologiyasi jamlangan. Darslikda maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy, jismoniy, aqliy, ahloqiy xuquqiy va ekologik ta'limini amalga oshirishning metod va vositalari asoslab berilgan

Mazkur darslik oliy o'quv yurtlarining "Maktabgacha ta'lim" fakulteti bakalavryat yo'nalishi sirtqi kurs talabalari uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchi: Mahmudova Darmonjon Bozorboyevna p.f.f.d. (PhD)
v.b dotsent

Taqrizchilar

U.Qodirov

Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi direktori, p.f.d. professor.

M.D.Abdullayeva

Alfraganus universiteti dotsent v.b., Maktabgacha ta'lim kafedrası mudiri, p.f.f.d. (PhD) dotsent.

UO'K 373.2;37.014.6

KBK 74.1

Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 29 maydagi 232-sonli qaroriga asosan nashr etishga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-0897-5-4

© Mahmudova D.B., 2024
© "Osiyo tur", 2024

MUNDARIJA

KIRISH

5

1-MODUL. MAKTABGACHA TA'LIMDA METODIKA FANLARINI O'QITISH TEXNOLOGIYASI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI VA ASOSIY TAMOIYILLARI

1-mavzu: Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida. 7

2-mavzu: Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanining asosiy tamoyillari.. 20

3-mavzu: Metodika fanlarining o'qitish texnologiyasiga zamonaviy yondashuvlar 34

4-mavzu: Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha metodika fanlaridan o'quv metodik komplekslar tayyorlashning ahamiyati 43

2-MODUL. MAKTABGACHA TA'LIMDA METODIKA FANLARINI O'QITISH TEXNOLOGIYASI FANIDA O'QITISH SHAKLLARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI

5-mavzu: Ma'ruza mashg'uloti texnologiyasini ishlash. Ma'ruza matnini tuzish. Mini ma'ruzalar o'tkazish 49

6-mavzu: Seminar mashg'ulotlarini o'tkazish texnologiyasi 54

7-mavzu: Amaliy, labarotoriya mashg'ulotlarini o'tkazish texnologiyasi 72

3-MODUL. KURS ISHI (LOYIHASI)NI TAYYORLASH, BITIRUV MALAKAVIY ISHLARIGA RAHBARLIK QILISH. MUSTAQIL TA'LIM VA UNI TASHKIL ETISH METODIKASI

8-mavzu: Metodika fanlarining o'qitish texnologiyasi fanidan kurs ishi(loyixasini) tayyorlash metodikasi 81

9-mavzu: Bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlash 88

10-mavzu: Mustaqil ta'limni tashkil etish va o'tkazish texnologiyasini ishlab chiqish 106

4-MODUL. O'QUV VA MALAKAVIY PEDAGOGIK AMALIYOTNI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH TEXNOLOGIYASI

11-mavzu: O'quv amaliyotni tashkil etish va o'tkazish va dasturlarini tuzish texnologiyasi 119

12-mavzu: Malakaviy amaliyotni tashkil etish va o'tkazish va dasturlarini tuzish texnologiyasi 125

5-MODUL. MAKTABGACHA TA'LIMDA METODIKA FANLARINI O'QITISH TEXNOLOGIYASI FANIDAN O'QITISH METODLARIDAN FOYDALANISH

13-mavzu: O'qitish jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalarning turlari. 128

14-mavzu: Turli texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq Etish 152

GLOSSARIY 175

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR 182

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadlaridan biri xalqchil, insonparvar va madaniyatli jamiyat barpo qilishda, mustaqil davlatimizning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy ravnaqini ta'minlashda uning jahon hamjamiyatida tutgan o'mi va obro' e'tiborini mustahkamlashda maktabgacha ta'lim tizimi tashkilotlari faoliyatida - yosh avlodga berilayotgan talim-tarbiya ishlarining sifati va samaradorligini oshirishni eng zarur va kechiktirib bo'lmaydigan muhim omillardan deb hisoblaydi.

Pedagogika oliy o'quv yurtlarida pedagog- tarbiyachi kadrlarni tayyorlash tizimini sifat jihatidan yangilash, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashda "Metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi" fani muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagoglik kasbga tayyorgarlikni o'ziga xos milliy, ilmiy-nazariy hamda amaliy tomonlari mavjudligi uni amalga oshirishda pedagogika fanining o'qitishni o'ziga xos mos metodikasiga bog'liqdir.

Metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi faning maqsadi, vazifalari undagi dolzarb muammolar, tamoyillari, metodlari, o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ma'ruza, seminar va amaliy, laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil qilish metodikasi, Metodika fanlarining o'qitish texnologiyasi fanidan kurs ishi(loyixasini) tayyorlash metodikasi, bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlash, mustaqil ta'limni tashkil etish va o'tkazish

texnologiyasini ishlab chiqish, o'quv malakaviy amaliyotni tashkil etish va o'tkazish va dasturlarini tuzish texnologiyasi hamda pedagogi - tarbiyachi mahorati haqida, talabalarga O'qitish jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalarning turlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Darslik dastur doirasida berilayotgan mavzular maktabgacha ta'lim sohasi bo'yicha pedagog xodimlarni tayyorlash mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalari asosida shakllantirilgan bo'lib, bu orqali sohaga oid zamonaviy ta'lim va innovatsiya texnologiyalari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishni tizimli tahlil qilish, shuningdek, pedagogik vaziyatlarda optimal qarorlar qabul qilish bilan bog'liq kompetentsiyalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

1-MODUL: MAKTABGACHA TA'LIMDA METODIKA FANLARINI O'QITISH TEXNOLOGIYASI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI VA ASOSIY TAMOYILLARI

1-MAVZU. MAKTABGACHA TA'LIMDA METODIKA FANIARINI O'QITISH JARAYONI YAXLIT TIZIM SIFATIDA...

REJA:

1. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanining vazifalari.
2. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanining asosiy kategoriyalari.
3. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi.
4. Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi fanining qonuniyatlari

Tayanch so'zlar: intellektual, ijtimoiy buyurtma, xulq-atvor, tarbiya, shaxs, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, metodika.

Maktabgacha ta'limda metodika fanlari-maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi. Shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish va ularda axloqiy fazilatlarini shakllantirish va ularni maktab ta'limiga tayyorlash muammolarini o'rganadi.

Maktabgacha ta'limda metodika fanlari bola shaxsini rivojlantirishning ikki muhim jihati-unga ta'lim berish va uni tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratadi.

Maktabgacha ta'limda metodika fanlari - Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.